

## MAKTABGACHA TA'LIMNING MAZMUN- MOHIYATI VA TA'LIM TIZIMIDA TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

G'oziboyev Tavakkal  
*Baxmal pedagogika  
kolleji o'qituvchisi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lismi ta'limning mazmun-mohiyati,maktabgacha ta'lismi tizimida tizimida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar o'rin olgan. Hamda maqolada maktabgacha yoshdagi ta'limning sifati va harakteri haqida fikrlar mavjud.

**KALIT SO'ZLAR:** ta'lismi.maktabgacha ta'lismi, tarbiyachi, metod,bola texnologiya.

**KIRISH.**'Maktabgacha ta'lismi va tarbiya, umumiyligi o'rta ta'lismi davlat nazoratidadir.<sup>3</sup> O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasida ilk bor maktabgacha ta'lismi tizimi qayd etildi. Maktabgacha ta'lismi bolalarga ta'lismi va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy,etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiyligi o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta'lismi turi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lismi-bolalarning individual va yosh xususiyatlarini, qiziqishi, moyilligi, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, bola shaxsining jismoniy, intellektual, ijtimoiy-axloqiy va ruhiy rivojlanishini ta'minlovchi,shuningdek maktabga tayyorlab, hayotga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yonaltirilgan yaxlit jarayondir. Maktabgacha ta'lismi uzlusiz ta'lismi tizimining boshlangich bo'gini sifatida Davlat maktabgacha ta'lismi tashkiloti maktabgacha ta'limga qoyiladigan davlat talablari, ta'lismi-tarbiya dasturlari,sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarda, jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena, ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish, nutq, o'qish va chet tillarni organish, bilish jarayoni, dunyo haqidagi bilimlar va dunyoni anglashi, ijodiy-estetik rivojlanishini taminlaydi.

Maktabgacha ta'lismi va tarbiyaning asosiy prinsiplarida har bir bola uchun maktabgacha ta'lismi va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi,har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlanishish uchun shart-

<sup>3</sup> yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 50-modda

sharoitlar tengligi,maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim, tarbiya berish va ularni sog‘lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyaviy ta’sirining birligi asos qilib olingan. Maktabgacha ta’lim va tarbiya mazmuni,<sup>4</sup> darajasi hamda hajmining maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog‘lig‘i holatiga muvofiqligi, ta’lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi, ta’lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi qonun bilan kafolatlangan.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida har bir bolaning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga bo‘lgan huquqi amalga oshirilishini ta’minalash hamda bolalarning maktabgacha ta’lim va tarbiyaga to‘liq qamrab olinishini ta’minalash uchun shart-sharoitlar yaratish masalalarini misol qilib aytamiz.Bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta’lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko‘rsatish.bolalarning, shu jumladan alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan bo‘lib kelmoqda.Maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlanirishni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash,maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlanirish ham muhim davlat ahamiyatiga molik masalalardan hisoblanadi.Maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida hozirgi kunda bir qator islohatlar olib borilmoqda.

Binobarin, ta’lim va tarbiya, jamiyat talablariga javob beradigan muayyan shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish maqsadida katta avlodning yosh avlodga ongli maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatish jarayoni sifatida hal etuvchi muhim omil hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar

ta’lim-tarbiyasiga qo‘llanadigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, manaviy va intelluktual jihatdan mifikda o‘qishga tayyorlashni nazarda tutadi.

Bolalarga beriladigan ta’limning mazmuni har bir yosh davrida bir-biridan keskin farq qiladi.Masalan: oilada va maktabgacha yoshidagi bolalarga majburiy (bilim) ta’lim berilmaydi.Ular uchun kundalik hayotining o‘zi ta’imdan iborat bo‘lib, bu yoshdagi bolalar kundalik hayotlarida atrof-muhitdagi narsa va hodisalar bilan tanishadilar, xilma-xil narsalarni qo‘llari bilan ushlab ko‘rib sinchiklab tekshiradilar.Bu yoshdagi bolalar kuchli hissiyotli va juda qiziquvchan bo‘ladilar. Ularning ana shu qiziquvchanligidan keng foydalanish lozim, ta’lim berishda ularni

<sup>4</sup> Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risidagi qonun 2019 y 16.12

atrof -muhitdagi narsalar bilan bevosita tanishtirishdan ko'rsatma material yaxshi natija beradi.Maktabagcha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lif xarakteri esa tubdan farqli o'zgarib, ta'lif jarayoni maxsus tuzilgan.Bu yoshdagi bolalarga beriladigan bilim darajasi kichik yoshdagi bolalarga beriladigan bilimlarga nisbatan juda kengaytirib boriladi. Bu bilimlarni o'zlashtirish tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali amalga oshadi. Masalan: Elementlar matematika mashg'uloti, nutq o'stirish mashg'uloti, jismoniy tarbiya mashg'uloti, rasm, loy, aplikatsiya konstruktivlash, kompyuter mashg'uloti va boshqa shunga o'xshash mashg'ulotlar jumlasidandir.

**XULOSA.**Maktabgacha ta'lif jarayoni mumkin qadar aniq, to'liq holda va ko'rsatmali vositalar bilan o'tkazilishi kerak. Muntazam ravishda o'tkaziladigan ana shunday mashg'ulotlar natijasida maktabgacha yoshidagi bolalarda bilimlarni o'zlashtirishga ishtiyooq, qiziqish, bilimlarga havas ortib boradi. Biroq ta'lifiy mashg'ulotlarda bolalar ishini doim kuzatib turilsa, ular oldiga aniq maqsad va vazifalar belgilab berilsa, bu mashg'ulotlar ham o'yin faoliyatları kabi g'oyat qiziqarli va jozibali o'tadi, bolalar mashg'ulotlarda zerikmay, diqqat bilan ishtiroy etishadi.Undan tashqari maktabgacha yoshidagi bolalar shaxsiy xislatlarining kamol topishida tasvirlash faoliyatining roli kattadir.Ma'lumki maktabgacha yoshidagi bolalarga rasm solish, loydan turli narsalar yasash, kubuklardan uychalar, ko'priklar qurish singari mashg'ulotlar juda yoqadi. Ular o'z tasviriy faoliyatlarida tashqi muhitni, undagi narsalarni, tabiatni, hayvonlar dunyosini, aks ettirishni juda xohlaydilar va shunga intiladilar.Maktabgacha yoshdagi yoshdagi bolalar tasvirlash faoliyatining psixologik afzalligi mazkur faoliyatida ijodkorlik, yaratuvchanlik elementlarining mavjudligidan iboratdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.O.Hasanboyeva va boshqalar «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi »  
Toshkent, Ilm-ziyo, 2006y
- 2.Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch-sinov dasturi.  
Toshkent - 1998 y.
3. "Ilk qadam" dasturi. Toshkent 2018 y
- 4.Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishining o'ziga xosliklari. Мактабгача таълим журнали, 3(Preschool education journal).
5. «Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari»T.: 2018 yil18 iyun

6. «Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayonini tematik rejalashtirish» T.: 2019 yil
7. M.Hamidova va boshqalar. “ Maktabgacha yoshdagi bolalarining kamolotida yangicha yondashuv va uni targ‘ib qilishda jamoatchilik ishtiroki” . T.:”O‘qituvchi” 2014y,252 b



***“Innovations in Science and Technologies”***